

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015338>

Esanova Sevinch Asliddin qizi

Navoiy davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini oshirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati, shuningdek, o'quvchilarni kitobxonlikka bo'lgan qiziqlarini orttirishga doir ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ertak, tez aytish, topishmoq, xalq og'zaki ijodi, masal, kitobxonlik.

USING EXAMPLES OF FOLK ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract

This article discusses the importance of using folktales to improve the speech of primary school students, as well as guidelines for increasing students' interest in reading.

Keywords

Primary school students, fairy tale, quick recitation, riddle, folktale, parable, reading.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье обсуждается важность использования народных сказок для улучшения речи учащихся начальной школы, а также рекомендации по повышению интереса учащихся к чтению.

Ключевые слова

Учащиеся начальной школы, сказка, быстрое чтение, загадка, народная сказка, притча, чтение

Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalash, hozirgi zamonamizning, bugungi kunimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Jamiatni, yoshlarni yaxshi tarbiyalash, axloqli hamda ilmli qilish kelajagimiz uchun mustahkam poydevordir. Yoshlarni oiladan boshlab ilmga, kitobga qiziqtirib borish kerak. Chunki oiladagi tarbiya eng boshlang'ich bilim va ko'nikma hisoblanadi. Maktabga chiqqan paytlarda ham ustoz va ota ona hamkorligida o'quvchilarni bilim olishga, darslarga qiziqtirib, ilmini oshirib, ularni salohiyatli qilib tarbiyalash lozim.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lif o'qituvchilar o'quvchilarning nutqini oshirish, ularning xotirasini mustahkam qilish, bilimga ishtiyoqini kuchaytirish uchun xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanmoqdalar. Darhaqiqat, shuni aytib o'tish kerakki zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham ta'lif jarayonining unumdarligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish juda muhim. Chunki xalq og'zaki ijodi - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va afsonalar – boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ravon gapirish, fikrni aniq ifodalash, tasavvur va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda katta o'rinn tutadi.

Xalq og'zaki ijodining nutq o'stirishdagi ahamiyati:

-so'z boyligini oshiradi - xalq ijodi namunalari o'ziga xos obrazlar, boy lug'at va ta'sirchan iboralar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini boyitadi. Masalan, ertak va maqollar orqali turli xil so'z va iboralar yodda qoladi;

-to'g'ri talaffuz va ohangni shakllantiradi - she'rlar va tez aytish mashqlari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, tovushlarni aniq chiqarishga o'rganadilar. Bu esa ularning aniq va ravon nutq so'zlashiga yordam beradi;

-mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi - topishmoqlar bolalarni o'yashga, mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shuningdek, afsonalar va rivoyatlar sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunishga yordam beradi;

-ijodkorlik va tasavvurini oshiradi - ertak va dostonlarni tinglab, bolalar tasavvur qilishni, yangi voqealarni o'ylab topishni o'rganadilar. Bu esa ularning ijodiy nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi;

-nutq madaniyatini shakllantiradi - xalq maqollari, hikmatli so'zlar yordamida bolalar to'g'ri va mazmunli gapirishni o'rganadilar. Ular fikrni qisqa va lo'nda ifodalashga, adabiy nutq normalariga rioya qilishga o'rganadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga birinchi sinfdanoq xalq og'zaki ijodi namunalarining dastlabki tushunchalarni berib borish lozim. Maqol nima?,

Topishmoq nima?, ularning o'quvchilar uchun nima foydasi bor? Boshlang'ich sinf o'quvchilari, albatta, bularni bilishi kerak.

Maqol bu - ibratli so'zdir. Xalq tilida aytganda maqol bu-otalar so'zidir. Gapirganimizda maqollarni qo'shib aytish nutqimizni chiroyli, jozibador, ravon qilib, so'z boyliginizni ham oshiradi. Tilimizda aytadigan maqollarimiz eng avvalo bizni tarbiyaga chorlaydi. Masalan: odobning boshi salom⁴⁷. Bu maqolimiz hammaga salom berishni, bergen salomimiz bizning odobimizni ko'rsatishni anglatadi.

Nutq so'zlayotganimizda qancha ko'p maqollarni qo'shib gapirsak, nutqimiz shunchalik rivojlanadi, o'sadi va ravon bo'ladi. Maqollar bilan bir qatorda topishmoqlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini oshiradi, diqqatini kuchaytiradi va zehnini o'tkirlashtiradi.

Topishmoqlar qadim zamonlardan beri bundan 50-100 yil ilgaridan beri ham bordir. Topishmoqlarning ijodkori ham xalqdir. Nomin o'zi aytib turganidek topishmoq - jumboq ya'ni aqlni charxlovchi o'yin deganidir. O'quvchilarning jismonan epchil, chaqqon, aqli qiladigan o'yin "Bekinmachoq" bo'lsa, aylanma topqir, zehnli qiladigan o'yin esa topishmoqdir. Topishmoqlar o'z ichiga borliqdagi barcha narsa hodisalarini, ularning turli ko'rinishlari, tabiat hodisalarini qamrab oladi. Masalan: oy, quyosh, ruchka, soat va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari qancha ko'p topishmoqlarni bilsa, ularning zehnlari shunchalik o'tkir bo'ladi. Bundan tashqari topishmoqlarni ko'p bilgan o'quvchilar masalalarini ham yaxshi, bexato yechadilar. Topishmoqlar o'quvchilarni kuchli o'ylashga va o'ylagan narsasini tasavvur qilishga o'rgatadi. Hayvonlar haqidagi topishmoqlar berildimi, o'sha hayvonning ta'rifi aytildi. O'quvchilar topishmoq javobini topganidan uni xayolida tasavvur qilib, darrov eslaridan saqlab qoladilar. Masalan tuya haqidagi topishmoqqa qarasak:

- Bir qiziq hayvon,-

Yelkasida tog'

Fil emas, ammo

Izlari yalpoq

Ipakdek mayin

Junlari yumshoq

Bo'yni kamalak

Yemishi yantoq

Yurar sahroda

Haftalar chanqoq

Topchi, Ruqiya

⁴⁷ 2- sinf 2-qism Ona tili darsligi. Novda nashriyoti. 29- bet, 2023

Bu nima ?

—

Bu topishmoqg‘imizda Tuvaning sahroda yashashi, uning suvsizlikka chidamliligi, junlarining yumshoqligi aytib o’tilgan. Bu esa o’quvchilarga tuya haqidagi ma’lumotlarni tezroq eslab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari topishmoqlar she’riy usulda yozilgani uchun o’quvchilar topishmoqni yod olish barobarida ularning nutqlari ham ravon bo’ladi.

Xalq og’zaki ijodining yana bir namunasi bu tez aytishdir. Tez aytish xalq og’zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. Tez aytishlar o’quvchilarning tilini burro qiladi, nutqini rivojlantiradi va so’zlarni to’g‘ri aytishga o’rgatadi. Bundan tashqari xotirasini mustahkamlab, aqliga aql qo’shadi va ongini rivojlantiradi. Tez aytishlar o’quvchilarga qiyin so’zlarni yaxshi aytishga yordam beradi.

Masalan: Non yasashasizmi

Sholi sanashasizmi⁴⁸

Xalq og’zaki ijodining har bir janiri o’quvchilarning savodi, bilim olishi uchun judayam zarur va muhimdir. Hozirgi paytda xalq og’zaki ijodi janrlari takomillashib o’quvchilarning ong - tushunchalarini rivojlantirishga, nutqini oshirishga, aqliga aql qo’shishga katta xizmat qilmoqda.

Demak, xalq og’zaki ijodidan foydalanish boshlang‘ich sinf o’quvchilarining nutqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bu nafaqat ularning so’zlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni ham singdiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2- sinf 2-qism Ona tili darsligi. Novda nashriyoti. 29- bet, 2023
2. M. Jumaboyev "Bolalar adabiyoti". Toshkent – 2008
3. M. Jo’rayev, J. Eshonqulova " Folklarshunoslikka kirish" Toshkent – 2017
4. G‘. Ernazarov " Ona tili o’qitish metodikasi " Toshkent – 2013

⁴⁸ "Bolalar adabiyoti" M. Jumaboyev 25- bet, Toshkent —2008